

**Nodirbek JUMANOV**

# **MEHR KERAK**

**She'rlar**

MAJBURIY NUSXA

Qarshi  
«Nasaf» nashriyoti  
2013


84(50') 7-928.9208.

UO'K O'z.2  
KBK 84 (50'zb)-3  
J 87

***Nodirbek Jumanov she'riyatga havasi baland yoshlarimizdan. So'zga mas'uliyat bilan yondashadi. Mashqlarining aksariyatida she'riy joziba aks etib turadi.***

***Nodirbekning kelajakdagi ijodiy ishlariga ulkan zafarlar tilaymiz.***

**Mas'ul muharrir:  
Y.Ziyodov.**



J  $\frac{4702620201-33}{376(04)2013}$  33-2013

© N. Jumanov, 2013 yil.

© "Nasaf" nashriyoti, 2013 yil.

ISBN 978-9943-18-132-8

## SHOIRLIK KASB EMAS SHOIRLIK HAVAS

Xayollarim kezar samoda tanho,  
Menga dilim podsho, she'rlarim oshno.  
Shu go'zal olamdan olaman nafas,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Qalb qo'ring yozasan oppoq qog'ozga,  
Mast bo'lib yashaysan, sarmast ovozga.  
Jo'r bo'lib kuylaysan navoga, sozga,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Oddiy so'zlar emas, diling to'kasan,  
Qalbingda asragan siring to'kasan.  
She'r yozmay dunyodan qayday o'tasan,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Ko'rgan, kechirganing, sezgan, bilganing,  
Qog'ozga tushurib qalbni tilganing.  
Dunyo go'zalligini ta'rif qilganing,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

O'zimni shoirmas, bir xas sezaman,  
Yurakdan chiqmagan bir sas sezaman.  
Dard, hasratga to'lgan bag'rim ezaman,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Shoirga g'am surnay, ko'ngil esa tor,  
Shoirga alamlar yangragan dutor.

Bu dunyo kengga keng, torga esa tor,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Shoirda bu dunyo go'zal atirgul,  
Gohida yashnaysan, gohi esa so'l.  
Mayliga shoirmas kim bo'lsang ham bo'l,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Dil ezar she'rlarni sen zor yozasan,  
Qalb kezar she'rlarni bir bor yozasan.  
Yozasan tinmayin, takror yozasan,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

Nodirbek havasdan izla baxtingni,  
Kun kelsa toparsan iqbol taxtingni.  
Aslo yo'qotmagin ushbu ahdingni,  
Shoirlik kasb emas, shirin bir havas.

## **YOSHLIK**

Yoshligimning shamchiroqlari,  
So'nar ekan yonganda biroq.  
Ammo so'ngan shamchiroq kabi,  
Yoshlik ketar mendan ham yiroq.

Yoshligimning har bir damlari,  
Ko'zlarimdan asta yo'qoldi.  
Yoshlik ketdi, o'tib g'amlari,  
Faqat undan shodliklar qoldi.

Yoshligimning har bir onlarin,  
Eslab-eslab ko'zga surtarman.  
Yoshligimning baxtli shonlarin,  
Qaytishini yig'lab kutarman.

## SEVGINI

Ne his ko'ksingni tilar?  
Ko'nglim yor vaslin tilar.  
Sevgi nima aslida,  
Sevib sevilgan bilar.

Chin yorni suyish boshqa,  
Azobda kuyish boshqa,  
Bo'ldi to'ydim demagil  
Jondan-da to'yish boshqa.

Ishqdan ketsa diyonat,  
Ne qiladi hiyonat.  
Aziz tut yoshlik qadrin  
Umring o'tar omonat.

Sevgi oshiqning baxti,  
Unga loyiqning baxti.  
Sira buzilmas axdi,  
Sevgini sevgan bilar.

## SALOM

To'rttala aka-uka,  
Navbatma-navbat yelar.  
Har biri o'zga olam,  
Yilda birma -bir kelar-  
Navro'zoy, ta'zim aylang,  
Aka-ukaga salom.

Qahratonni yo'q qilar,  
Gullarni boshini silar,  
Yurtga omonlik tilar.  
Navro'zoy, ta'zim aylang,  
Ko'klam og'aga salom.

Bir kaftida nur quyosh,  
Birida bog', bol-talosh.  
To'qchilikka ko'zu-qosh,  
Navro'zoy, ta'zim aylang.  
Jilvakor yozga salom.

Sahovati behisob,  
Misoli oltin oftob.  
Ko'rsatadi zo'r kitob  
Navro'zoy, ta'zim aylang.  
Himmatli kuzga salom.

Yangi yil bayram sizga,  
Qorboboyu qorqizga.  
Mayliga yalmog'izga,  
Navro'zoy, ta'zim aylang.  
Oqsoqol qishga salom.

## **MEHR KERAK**

**Mehr qolur, muhabbat qolur  
Muhammad YUSUF.**

Bo'lsa umr qisqa yo uzun,  
O'tar ekan shod, gohi mahzun.  
Inson axir yashashi uchun,  
Mehr kerak, muhabbat kerak.

Bo'lmoq uchun dilga hush tilak,  
Ko'ngil tortsa bir lahza sergak.  
Inson uchun o'zi ne kerak?  
Mehr kerak, muhabbat kerak.

Qizg'onmangiz bir shirin so'zni,  
Namlasangiz gar qaro ko'zni.  
Burmangizlar iltimos yuzni,  
Mehr kerak, muhabbat kerak.

Tushsa kimdir og'ir ahvolga,  
Ko'ngil zordir bir so'zi bolga.  
Yetmoq uchun baxtu iqbolga  
Mehr kerak, muhabbat kerak.

Kelganida qiyomat bir kun,  
Bekor shunda tavbalar durkun.  
Sevish yaxshi-yashamoq uchun,  
Mehr kerak, muhabbat kerak.

## SO'ROVCHILAR YO'Q

Yurakka botganda dardlar, alamlar,  
Do'stlarim yo'qolar, ketib sanamlar.  
O'shal vaqt dardkashdir menga qalamlar,  
Mening holimni bir so'rovchilar yo'q,  
Qalbimni baxtlarga o'rovchilar yo'q.

Boylik ham ketdi-yu, do'stlarim ketdi,  
Ulfatlar davrasi-u kunlar o'tdi.  
O'shal vaqt sodiqlik poyonga yetdi,  
Mening holimni bir so'rovchilar yo'q  
Qalbimni baxtlarga o'rovchilar yo'q.

Do'stlar achchiq gapin izhor etganda,  
Mendan ajralmoqlik fursat yetganda.  
Hatto orzularim tashlab ketganda,  
Mening holimni bir so'rovchilar yo'q,  
Qalbimni baxtlarga o'rovchilar yo'q.

Qadrlar so'radim sizdan odamlar,  
Yuribman siz yurgan izdan odamlar,  
O'tgandir, kechiring bizgan odamlar...  
Mening holimni bir so'rovchilar yo'q,  
Qalbimni baxtlarga o'rovchilar yo'q.



## O'ZLIGINGNI UNUTMA

Noming ko'kda bo'lsa gar,  
Omad senga kulsa gar.  
Iymoningni bossa gard,  
O'zligingni unutma.

Dema men oqil, dono,  
Biroq nodonlik ammo.  
Shu birgina muammo,  
O'zligingni unutma.

Boshingda fikr o'ylar,  
Bilmadim neni so'ylar.  
Adashtirar bu ko'ylar,  
O'zligingni unutma.

Orzuyu armon ko'pdir,  
Yaxshiyu yomon ko'pdir.  
Yo'lingda shayton ko'pdir,  
O'zligingni unutma.

O'z qadringni o'zing bil,  
Atrofga boq, fikr qil,  
Har kuningga shukur qil,  
O'zligingni unutma.

## AYOL

Ta'rif ko'pdir, qalam ojiz, tillarim loldir,  
Har so'zida yuz andisha, so'zlari boldir.  
Buyuklikning aslidir bu, o'chmas hayoldir,  
Hayotga zeb, oro bergan munis ayollar.

Taqdiriga bitilgandir neni qismatlar,  
Ko'zlaridan yog'ilajak nurday hikmatlar.  
Qilsak arzir qancha hurmat, qancha izzatlar,  
Hayotga zeb, oro bergan munis ayollar.

Mehnat qilib tolmaydi hech, qolmaydi ishdan,  
Saratonmi yoki kuzmi, qahraton qishdan.  
Qo'rqmaydi hech yolg'on so'zdan, yolg'on mishmishdan,  
Hayotga zeb, oro bergan munis ayollar.

Qalb qo'rini bag'ishlaydi, jonu dilidan,  
Shirin so'zlar tushmas sira shakar tilidan.  
Jondan kechsa kechar, ammo kechmas elidan,  
Hayotga zeb, oro bergan munis ayollar.

## VATAN

Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan,  
Tojida quyosh porlar, toleidan shod Vatan.  
Erk ishqida yashnab-u, olg'a qadam tashlagan,  
Ozod farzandlariga hamisha qanot -Vatan  
Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan.

Sevimchim toshib jo'shqin, daryolarga qo'shildim,  
Tog'lardan oshib shoshqin, dunyolarga qo'shildim.  
Ahdim dedim, baxtim dedim safolarga qo'shildim,  
Ozod farzandlariga hamisha qanot -Vatan,  
Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan.

Boldek shirin so'zingni qizg'onmading bolangdan,  
O'tmish hayratda sening oqqan jolangdan.  
Rizq nasiba arimas yil-to'rt fasl dalangdan,  
Ozod farzandlariga hamisha qanot -Vatan  
Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan.

Bugun sening dovrug'ing yetti falakka yetar,  
Noming barcha qalblar-u, oshiq yurakka yetar.  
Shoirilar madhingga qator dostonlar bitar,  
Ozod farzandlariga hamisha qanot -Vatan  
Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod Vatan.

Yuksak manaviyatli farzandlaring bor bo'lsin,  
Iqtidorli yoshlarga omad doim yor bo'lsin.  
Ey yurtim gulla, yashna quvonching takror bo'lsin,  
Ozod farzandlariga hamisha qanot -Vatan  
Taqdirimsan, baxtimsan erkin va ozod Vatan.

### **ADASHDIM**

Yorim sen deb, adashdim,  
Zorim sen, deb adashdim.  
Dil bilan dil tutashgan,  
Borim sen deb, adashdim.

Rayhondek so'limdursan,  
Olim yo'limdursan.  
Adashgan ko'nglimdursan,  
Orim sen deb, adashdim.

Boy berdim, bahorimni,  
Tun bosdi nahorimni.  
Ko'r, endi ozorimni  
Dorim sen deb, adashdim.

Holim etding faromush,  
Vasling menga shirin tush,  
Boshimdagi humo qush,  
Sorim sen deb, adashdim.

### **OTAJON**

Bizni kimlarga tashlab, qayon ketdingiz ota?  
Kimlarga mehr berib, kimdan kutdingiz ota?  
Yorug' dunyodan kechib, qayga yetdingiz ota?  
Yuragimda jon bo'lgan darmonimsiz otajon,  
Qalbimni tig'day tilgan armonimsiz otajon.

Ko'kka boy cho'zgan terak, sabo endi sizniki,  
O'zi bizga ne kerak, navo endi sizniki.  
Samo bizga kerakmas, samo endi sizniki,  
Yuragimda jon bo'lgan darmonimsiz otajon  
Qalbimni tig'day tilgan armonimsiz otajon.

Butun dunyoni kezay sizga qadamim yetmas,  
Dardim bayon etmoqqa qog'oz- qalamim yetmas.  
Suratingiz quchsam ham, dildan alamim ketmas,

Yuragimda jon bo'lgan darmonimsiz otajon,  
Qalbimni tig'day tilgan armonimsiz otajon.

Nodirbek neni yozib, neni kutdi kishidan,  
Egilmadi hayotimning bahor yoz, kuz, qishidan.  
Otasini qumsar, lekin rozi qismat ishidan,  
Yuragimda jon bo'lgan darmonimsiz otajon,  
Qalbimni tig'day tilgan armonimsiz otajon.

### ONAJON

Dilimning ardog'i, qonimda mening,  
Shoshqaloq yurak-u, jonimda mening.  
Hayotim mazmuni, yonimda mening,  
Suyanchim, quvonchim, darmonim onam.

Ko'nglimning gavhari o'zingiz ona,  
Siz borsiz baxtliman, yorqin peshona.  
Baxtimdan o'rgilay, sizens nishona,  
Suyanchim quvonchim, darmonim onam.

Mehringiz berdizgiz bizga har doim,  
Boshdagi soyabon quyoshim oyim.  
Bizdan ayirmasin sizni xudoyim,  
Suyanchim quvonchim, darmonim onam.

## SEVSA

Sevsa qiyin bo'larkan,  
Sevgi o'yin bo'larkan.  
Sevgi ja-a kuydirarkan,  
Sevsa qiyin bo'larkan.

Rohat emas g'am yeysan,  
Toqat emas, nam yeysan.  
Endi sevmayman deysan,  
Sevsa qiyin bo'larkan.

Boshing botar baloga,  
So'ng o'xshaysan gadoga.  
Darding aytib saboga,  
Sevsa qiyin bo'larkan.

Dardkashing yo'q, dardlisan,  
Biror ofat, gardlisan.  
Sevmasang omadlisan,  
Sevsa qiyin bo'larkan.

## MENI BEVAFO DENGLAR

Dardimni daryo tinglar,  
Ohimni dunyo tinglar.  
Oshiq bedavo denglar,  
Yorni bevafo denglar.

Sodiqqlar sig'mas dunyo,  
Bilishmadi lek ammo.  
Endi sevmayman aslo,  
Yorni bevafo denglar.

Qasamim sodiqligim,  
Mardligim oshiqligim.  
Sensan mening borlig'im,  
Yorni bevafo denglar.

Oshiqlik oxirgacha,  
Zuhro-yu, Tohirgacha.  
O'zi vafoli qancha,  
Yorni bevafo denglar.

Yuz oshiq senga jonin,  
Qurbon etsa ham borin.  
Magar yo'qotsa yorin,  
Yorni bevafo denglar.

## **DILDORINGIZ ASRANGIZ**

Er yigitning mardlariga zor qizlar,  
Ishqda, har bir ishda madadkor qizlar.  
Dunyoning eng yorug' yuzidir sizlar,  
Ey, yigitlar dildoringiz asrangiz.

Zuhro uchun Tohir daryolar kechgan,  
Majnunlar kimsasiz sahrolar quchgan,  
Ishq yo'lida yo'g'u boridan kechgan,  
Ey yigitlar o'z yoringiz asrangiz.

Zinhor darig' tutmang, bir shirin so'zni,  
Ashklarga to'ldirmang munisa ko'zni.  
Zog'lardan qizg'onmang chamaningizni,  
Ey yigitlar gulyoringiz asrangiz.

## **SHE'RIYAT**

Men senga maftun bo'ldim she'riyat,  
Bir shoir o'g'ling bo'lgim keladi.  
Agar senga sodiq bo'la olmasam,  
Mayli daryolarda cho'kkim keladi.

Sen qandayin kuchga egasan bilmay,  
Yarim oy misoli to'lgim keladi.  
Olis-olislarda yursam ham mayli,  
She'riyat bog'ida turgim keladi.

Mayli o'zga yurtda shoh ham bo'layin,  
She'riyat sultoni bo'lgim keladi.  
Shu baxtning qadriga yetmasam agar,  
Mayli qiynoqlarda o'lgim keladi.

Men senga maftun bo'ldim she'riyat,  
Bir shoir o'g'ling bo'lgim keladi.  
Agar senga sodiq bo'la olmasam,  
Mayli daryolarda cho'kkim keladi.

## **VATAN**

Vatan-sen yuragim ichidadursan,  
Vatan-sen elimning kuchidadursan.  
Vatan senga umrim, fido bo'lsin jon,  
Barcha yurt ichida gullagan bo'ston,  
Bu mening vatanim, hur O'zbekiston.



Har zarrin tuprog'ing o'zgacha sening,  
Har daraxt yaprog'ing o'zgacha sening.  
Qalbdagi qarog'ing o'zgacha sening,  
Barcha yurt ichida gullagan bo'ston,  
Bu mening vatanim, hur O'zbekiston.

Tuprog'ing to'tiyo, bahoring go'zal,  
Sharqning gavharisan azaldan-azal.  
Sening har yumushing kelmas hech malol,  
Barcha yurt ichida tengi yo'q bo'ston,  
Bu mening vatanim, hur O'zbekiston.

Qancha o'g'lonlaring senga jon bo'lgan,  
Qancha kimsa senga shoh-u, xon bo'lgan.  
O'lsam ham hech kimga bermasman vatan,  
Barcha yurt ichida gullagan bo'ston,  
Bu mening vatanim, hur O'zbekiston.

### **QISHLOG'IMNI SOG'INDIM**

Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men,  
Jannat isli tuprog'imni sog'indim men.  
Mehr to'la qarog'imni sog'indim men,  
Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men.

Sog'inchlarim toshib ketdi ummonlardan,  
G'am cheksam ham yaxshilar-u, yomonlardan.  
Sado kelar huv, Chiroqchi tomonlardan,  
Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men.

17 2013/61 A6773	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
---------------------	--

Onam yopgan shirmoy nonlar shirin edi,  
Zulfiyani sevganim ham sirim edi.  
Qishlog'imda xursandchilik tekin edi,  
Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men.

Tikonlarga oyoq bossam botmaydi hech,  
Qushlar sayrar, tonglar erta otmaydi hech.  
G'animi ham birovga tosh otmaydi hech,  
Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men.

Gar sog'insam bir qushchaga aylanaman,  
Qanday qilib yetmoqlikni o'ylanaman.  
Boylansam ham, qishlog'imga boylanaman,  
Ey do'stlarim, qishlog'imni sog'indim men.

## **USTOZIM**

***Turdi Haydarovga***

She'riyat bog'idan ilk bor gul uzib,  
Mening yuragimga solgan ustozim.  
She'riyat kursiga ilk bor utqazib,  
Yurakda bir umr qolgan ustozim,  
Qalbgga she'r sirlarin solgan ustozim.

Sizsiz she'r neligin bilmay o'tardim,  
Omad yor bo'lishin oylab kutardim.  
Yutsam ham faqat g'am, alam yutardim.  
Yurakda bir umr qolgan ustozim,  
Qalbgga she'r sirlarin solgan ustozim.

## ONA

Men kim bo'ldim? Shoh bo'ldimmi sizni tashlab,  
Qayerlarga, qayga ketdim ko'ziz yoshlab.  
Topganlarim parcha qog'oz, qalam bo'ldi,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

Hatto yilda bir bo'lsa ham keloldimmi,  
G'amlar yutgan kunlaringiz tingloldimmi.  
Hech bo'lmasa sovg'a-salom beroldimmi,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

O'g'lingizdan begona ham sizga yaqin,  
Osmondagi parvona ham sizga yaqin.  
Endi qaydan izlayin-a, ayting tag'in,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

Alamingiz berkitdingiz daryo to'ldi,  
Sizni har bir so'zingizdan dunyo kuldi.  
Sizni jondan sog'inganim endi bildim,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

Mening sodda shoir bolam der edingiz,  
Qayda bo'lsam g'amlarimni yer edingiz.  
Kulsangiz ham bolam deya kulardingiz,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

Farzand bo'lib nima qildim sizga deya,  
Dunyolarda topilmas hech yuzga deya.  
Boldan shirin menga aytgan so'zga deya,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo'ldi.

Sizsiz ona kim bo‘lardim, kim ham bo‘ldim,  
Qoshingizga yillar o‘tib endi keldim.  
Sizni jondan sog‘inganim biroq bildim,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo‘ldi.

Dardlarimga dardkashimsiz men dard bo‘ldim,  
Dudog‘idan o‘pinch tomgan bir gard bo‘ldim.  
Ona sizsiz bir guldayin beahd so‘ldim,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo‘ldi.

Kulsangiz gar, kular edi ko‘kda quyosh,  
Osmondagi oydir sizga har vaqt yo‘ldosh.  
Dunyoda hech topilmaydi sizday bardosh,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo‘ldi.

Endi sizni alishmasman dunyolarga,  
Alishsam gar, cho‘kayin men daryolarga.  
Nolalarim yetsin endi samolarga,  
Ona, sizdan ketgan kunim alam bo‘ldi.

## KUMUSH

“O‘tgan kunlar“ romanin o‘qib,  
Ko‘zlarimdan yoshlar tomchilar.  
Unga deya bir misra yozib,  
Qalbidagi dog‘larim qonar.

Yodimdan hech chiqmas Kumush,  
Sadoqatning go‘zal timsoli.  
Qo‘ldan kelmas yo‘qdir yumush,  
Otabekda uning hayoli.

Osmonlarning parilari ham,  
Go‘zalikda kelolmaydi teng.  
Sevgisiga sodiq har doim,  
Matonatning timsolidir deng.

Unga atalgandir parilardek baxt,  
Faqat kulgularga to‘lsin bu turmush.  
Sevgini asraydi, iboli har vaqt,  
Yodimdan hech chiqmaydi Kumush.

## CHORLOV

O'lkamizga kuz keldi oltin, kuz mana,  
Dalalarda hosil qilar tantana.  
Yig'im-terim boshlanadi, chorlaydi yana.  
Oppoqqina "oltin"-oq paxtam mening.

Ha, terib olinar deymiz-u, lekin,  
Shuncha "oltin" berdi bizga shu ekin.  
Shuni terib olaylik, kel, o'rtoq, kelgin,  
Oppoqqina "oltin"-oq paxtam mening.

Paxtani teraylik do'st-u, yor bilan,  
Kuningga yarovchi madadkor bilan.  
Qo'shiqlar, yallalar, bir alyor bilan,  
Oppoqqina "oltin"-oq paxtam mening.

## MUNDARIJA

Shoirlik kasb emas.....	3
Yoshlik.....	4
Sevgini.....	5
Salom.....	6
Mehr kerak.....	7
So'rovchilar yo'q.....	8
O'zligingni unutm.....	9
Ayol.....	10
Vatan.....	10
Adashdim.....	11
Otajan.....	12
Onajon.....	13
Sevsa.....	14
Meni vafo denglar.....	14
Dildoringiz asrangiz.....	15
She'riyat.....	16
Vatan.....	16
Qishlog'imni sog'indim.....	17
Ustozim.....	18
Ona.....	19
Kumush.....	21
Chorlov.....	22

# ADABIY-BADIIY NASHR

**NODIRBEK JUMANOV**

**MEHR KERAK**

**She'rlar**

Muharrir:	L.Elmatov.
Texnik muharrir:	Ch.Rahmonov.
Musahhih:	L.Elmatov.
Sahifalovchi:	Sh.Xolmurodova.

Nashriyot litsenziyasi № AI 139, 27.04.2009 yil. Terishga 04.03.2013- yilda berildi. Bosishga 19.04.2013- yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108<sub>1/32</sub>. Times New Roman garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog'i 1,26. Nashr bosma tabog'i 0,67. 44-2013- shartnoma. 21- buyrtma. 100 nusxada. 24 bet. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 22-uy.

«Qarshipoligrafnashr» MCHJda chop etildi.  
180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi,  
22-uy.